



## O‘TKIR HOSHIMOVNING “BAXT” HIKOYASIDA BAXT KONSEPSIYASI

*Shabunaliyeva Himoyatxon O‘tkirbek qizi*  
*Farg‘ona davlat universiteti filologiya o‘zbek*  
*tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** O‘zbek adabiyotida inson ruhiyati va uning ma’naviy olamini tasvirlash muhim o‘rin tutadi. Bu borada O‘tkir Hoshimov ijodi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Adib o‘z asarlarida oddiy insonlar hayoti orqali murakkab falsafiy masalalarni yoritishga muvaffaq bo‘lgan. Uning “Baxt” hikoyasi inson hayotidagi eng muhim tushunchalardan biri — baxtning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada hikoyadagi baxt konsepsiyasi ilmiy-nazariy va badiiy jihatdan tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** baxt, tuyg‘u, muhabbat, omad, ishonch, mehr, munosabat.

### **Annotation**

In Uzbek literature, depicting the human psyche and spiritual world holds an important place. In this regard, the works of O‘tkir Hoshimov stand out for their uniqueness. Through the lives of ordinary people, the writer successfully explores complex philosophical issues. His short story “Baxt” (“Happiness”) serves to reveal the essence of one of the most significant concepts in human life — happiness.

This article analyzes the concept of happiness in the story from both scientific-theoretical and literary perspectives.

**Key words:** happiness, emotion, love, luck, trust, affection, relationship.

Kirish. Ma’lumki, baxt tuyg‘usi o‘zbek mentalitetida g‘arbdan farqli o‘laroq quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi. Baxt – mening dunyoga kelganim. Baxt bu –



ota-onamning borligi. Baxt bu – musulmon bo‘lganimiz. Baxt bu – yaxshi odamlar diydori. Odamlar baxt deganda ko‘proq nimani tushunishadi? Har kim o‘zining ongi, tafakkuri rivojiga qarab baxtni har narsada ko‘radi. Ayollar asosan oilasining tinch-xotirjamligi, erining unga mehr-muhabbati bo‘lib, farzandlari barkamol bo‘lishini, qizlar esa har tomonlama o‘ziga mos kishini uchratishini baxt deb hisoblaydi. Baxtni boylik bilan o‘lchab bo‘ladimi? Boylik baxt ko‘rsatkichi emas. Masalan, bir buyuk rus olimi o‘zining baxtini raketalar yaratishda ko‘rgan. U oshxonalaridagi oddiy ovqatlarni yeb kun ko‘rgan. Lekin bunday sharoitda ham o‘zini baxtli hisoblagan. O‘ziga to‘g‘ri kelgan baxtni his qilish uchun ozgina omil bo‘lishi mumkin. Odam ehtiyojlarining hech bo‘lmaganda o‘rtamiyona darajada qondirilishi ham baxtli bo‘lish uchun zamin yaratadi. Ba’zan hamma narsasi yetarli odamlar ham o‘zini baxtsiz his qiladi. Kishilar o‘zlarini baxtli his etishlari uchun nima qilishlari kerak? Bu dunyoga inson bo‘lib kelishning o‘zi baxt, undan inson bo‘lib ketish undan ham katta baxt. Afsuski, baxtning qadriga har doim ham yetavermaymiz. Erta bilan quyoshning nurini ko‘rishning o‘zi katta baxt. Gap uni his qilib, dunyo ne’matlaridan bahramand bo‘lishda. Baxt tushunchasi falsafa, psixologiya va adabiyotda turlicha talqin qilinadi. Falsafada baxt insonning hayotdan umumiy qoniqishi, maqsadlariga erishishi bilan bog‘liq bo‘lsa, psixologiyada u ruhiy muvozanat va ijobiy hissiyotlar yig‘indisi sifatida qaraladi.

Adabiyotda esa baxt ko‘proq badiiy obrazlar, qahramonlar taqdiri va ularning ichki kechinmalari orqali ifodalanadi. Shu jihatdan O‘tkir Hoshimov ijodi baxtni oddiy hayotiy lavhalar orqali ochib berishi bilan ahamiyatlidir.

Hikoyada baxt tushunchasi an’anaviy stereotiplardan farqli tarzda tasvirlanadi. Ko‘pchilik baxtni moddiy boylik, obro‘ yoki martaba bilan bog‘laydi. Ammo muallif bu qarashni rad etib, baxtni insonning ichki holati bilan bog‘laydi.

Asarda quyidagi mazmunli fikr ilgari suriladi: “Baxtni uzoqdan izlagan odam uni topolmaydi, chunki u insonning o‘z qalbida yashaydi.” Bu orqali muallif



baxtning tashqi emas, balki ichki hodisa ekanini ta’kidlaydi. Hikoya qahramonlari hayoti orqali oddiy, lekin samimiy lahzalar — baxtning asl manbai sifatida ko’rsatiladi.

Hikoyada Munira o’z baxtini eshikdan quvib solganday ,singlisi uchun baxtini qurbon qiladi .Ammo bu yilgi yangi yil unga baxt olib kelayotganidan bexabar qoladi.Asarda baxt va qanoat tushunchalari o‘zaro uzviy bog‘liq holda ochib beriladi. Qanoat — bu insonning o‘zida bor narsaga shukr qilishidir. Aynan shu sifat insonni ichki xotirjamlikka olib keladi.Munira sabr-qanoati sababli o‘z baxtiga erishadi.“Qanoat qilgan inson — baxtni his qilgan insondir.”Bu fikr shuni ko‘rsatadiki, baxt tashqi sharoitlarga emas, balki insonning ichki dunyosiga bog‘liq. Qanoatsizlik esa insonni doimiy izzatga soladi va uni baxtdan uzoqlashtiradi.

Hikoyada insoniy munosabatlar alohida o‘rin egallaydi. Oila, do‘stlik va mehr-muhabbat baxtning asosiy manbalari sifatida talqin qilinadi. Insonning baxtli bo‘lishi ko‘p jihatdan uning boshqalar bilan qanday munosabatda bo‘lishiga bog‘liq.

“Baxt — bu insonlar orasidagi mehr-oqibatda yashaydi.”Bu narsa hikoyada onasidan keyin Muniraning singlisiga umrini bag‘ishlaganida aks etadi.Bu g‘oya orqali muallif baxtni ijtimoiy hodisa sifatida ham talqin qiladi. Ya’ni inson yolg‘iz holda to‘liq baxtga erisha olmaydi; u jamiyat, oila va yaqin insonlar bilan bog‘liq holda shakllanadi.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Tanlangan zamonaviy o‘zbek yozuvchilari qatorida esa O‘tkir Hoshimov kabi yozuvchilar baxtning kundalik hayotdagi turli mavzularini muhokama qilishadi. Ularning asarlarida kichik baxtlar, oilaviy munosabatlar, bolaning kulgusi va favqulodda oddiy hayotdagi quvonchlar tasvirlanadi. Bu esa o‘quvchiga oddiy hayotiy hodisalarda baxtni topish imkoniyatini ko‘rsatadi. “Baxt” hikoyasida baxt konsepsiyasi keng va chuqur falsafiy mazmunda yoritilgan. O‘tkir



Hoshimov ushbu asari orqali baxtning asl mohiyati — qanoat, mehr-muhabbat va ichki xotirjamlikda ekanini ko‘rsatadi. Asar o‘quvchini hayotga yangicha nigoh bilan qarashga undaydi. Baxt uzoqda emas, balki insonning o‘z qalbida, uning kundalik hayotida mujassam ekanligi asarning asosiy g‘oyasidir. Aslida insonning baxtni sabr bilan kutishining o‘zi ham baxtdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘tkir Hoshimov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti.
2. O‘tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi.
4. Qo‘shjanov M. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Fan.
5. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Universitet nashriyoti.
6. Rasulov A. Badiiy tafakkur va uslub. – Toshkent: Fan.
7. Normatov U. Ijod psixologiyasi. – Toshkent: Sharq.